

**MAQSUD SHAYXZODANING “MIRZO ULUG’BEK”
TRAGEDIYASIDAGI MIRZO ULUG’BEK OBRAZI**

Xayriyev Xayriddin Sirojiddin o’g’li

Toshkent Davlat Transport Universiteti talabasi

xayriddinxayriyev08@gmail.com

+998932790455

Annotatsiya

1960-yilda yozgan «Mirzo Ulug’bek» tragediyasida buyuk o‘zbek astronomi va ma’rifatparvar podshosi obrazini o‘zbek adiblaridan birinchi bo‘lib yaratdi. Shayxzodaning o‘zbek adabiyoti tarixi, o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasidagi ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir. Maqsud Shayxzoda qalamiga mansub “Mirzo Ulug’bek” dramasi O‘zbek Milliy akademik drama teatrida qayta sahnalashtirildi. Sentyabr oyida ilk bor namoyish etilgan mazkur sahna asari san’atshunoslar, ijodkorlar, san’at muxlislari tomonidan samimiy kutib olindi.

**THE IMAGE OF MIRZO ULUG'BEK IN THE TRAGEDY "MIRZO
ULUG'BEK" BY MAKSUD SHEIKZODA**

Abstract

In the tragedy “Mirzo Ulugbek” written in 1960, he was the first among Uzbek writers to create the image of the great Uzbek astronomer and enlightened king. Sheikhzoda’s scientific work on the history of Uzbek literature, Uzbek folk art, in particular, the research of Alisher Navoi’s work is also commendable. The drama “Mirzo Ulugbek” written by Maqsud Shaikhzoda was re-staged at the Uzbek National Academic Drama Theater. This play, which was shown for the first time in September, was warmly welcomed by art critics, creators, and art fans.

**ОБРАЗ МИРЗО УЛУГБЕКА В ТРАГЕДИИ «МИРЗО УЛУГБЕК»
МАКСУДА ШЕЙКЗОДЫ**

Абстрактный

В трагедии «Мирзо Улугбек», написанной в 1960 году, он первым среди узбекских писателей создал образ великого узбекского астронома и просвещенного царя. Заслуживают высокой оценки и научные работы Шейхзоды по истории узбекской литературы, узбекского народного искусства, в частности, исследование творчества Алишера Навои. Драма «Мирзо Улугбек»

по сценарию Максуда Шайхзоды была повторена в Узбекском национальном академическом драматическом театре. Этот спектакль, впервые показанный в сентябре, был тепло встречен искусствоведами, творцами и любителями искусства.

Kalit so‘zlar: tragediya, suiqasd, Mirzo Ulug‘bek, fidoiy, vatan ravnaqi, shoh va shoir, rasadxona, padarkush, boylik, toj-u taxt, sulola.

Key words: tragedy, assassination, Mirzo Ulugbek, devoted, development of the country, king and poet, observatory, padarkush, wealth, crown and throne, dynasty.

Ключевые слова: трагедия, убийство, Мирзо Улугбек, преданный, развитие страны, царь и поэт, обсерватория, падаркуш, богатство, корона и трон, династия.

Kirish:

Avvalo biz Mirzo Ulug‘bek obrazi haqida gapirishdan oldin tragediya nima degan savolda javob topishimiz kerak. Jumladan, tragediya so‘zining kelib chiqishiga qaraydigan bo‘lsak, bu aslida yunoncha tragos-echki hamda ode-qo‘shiq so‘zlarining so‘zma-so‘z tarjimasi orqali „echki qo‘shig‘i“ deb tarjima qilinadi. Negaki qadimda Dionis nomli yunonlarning hosil xudosiga atab bayramlar o‘tkazishgan. Hamda bu bayramlarda echkilar so‘yilib ularning go‘shtlari dasturxonga tortiq etilgan. Hamda ularning terisini yopinib qo‘shiq va bir qancha o‘yinlarni o‘ynashgan. Bu turdagi qiziqchilarni qadimda tragoslar deb atashgan. Keyinchalik, bu so‘z asosan oxiri fojia va shu kabi hodisalar bilan tugaydigan asarlarga nisbatan ishlatilgan. Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi ham oxirida o‘z farzandi tomonida o‘ldirilganligi sababli ham buni janri tragediya deb nomlangan. Tragediyadagi eng asosiy obraz ya’ni bosh roldagi shaxs bu Davlat va jamiyat arbobi, ham shox ham olim sifatida dunyoga tanilgan Mirzo Ulug‘bekdir.

Asosiy qism:

Mirzo Ulug‘bek aslida kim? U nima sababdan bu darajada tanilgan? Mirzo Muhammad ibn Shohruh ibn Temur Ulug‘bek Qo‘rag‘oniy (1394-1449) – buyuk astronom va matematik, o‘z davrining atoqli allomasi, davlat arbobi, Movaraunnahrni 1441-1449 yillar boshqargan, mashhur hukmdor va sohibqiron Amir Temurning nabirasi. Ulug‘bek (Muhammad Tarag‘ay) 1394 yil 22 mart kuni hozirgi Ozarbayjon hududidagi Sultoniya shahrida tavallud topgan. 1405 yil, Markaziy Osiyodan tashqari, Yaqin va O‘rta Sharqning barcha hududi, O‘rtayer dengizidan Shimoiy Hindistongacha bo‘lgan katta yerni o‘z ichiga olgan ulkan saltanatni yaratgan buyuk sohibqironning o‘limidan so‘ng, butun merosiy mulki uning o‘g‘il va nabiralariga o‘tadi. Temuriylar saltanatining tepasiga Hirot qarorgohida saylangan Temurning o‘g‘li – Shohruh o‘tiradi. Mavaraunnahr boshqaruvi Shohruhning to‘ng‘ich o‘g‘li, Amir Temurning nabirasi Ulug‘bekka topshiriladi. 1409 yil Ulug‘bek Samarqand

hokimi etib e'lon qilinadi, otasi Shohruhning o'limidan so'ng, 1447 yil Temuriylar sulolasiga bosh bo'ladi. Yoshligida Ulug'bek fan va san'at turlariga, ayniqsa, matematik va astronomiyaga katta qiziqish bildiradi. Uning aqliy dunyoqarashi kengayishida otasi va bobosi to'plagan boy kutubxona zamin bo'ldi, u yerda ko'p vaqtini o'tkazardi. Mirzo Ulug'bek Maqsud Shayxzoda tariflagani kabi haqiqatdan ham juda kuchli, ham dunyoviy ham diniy tomonlarini o'z joyiga qo'ygan davlat arbobi – buyuk shoh hisoblanadi. Men ushbu asarni o'qish davomida shunchalik kuchli, o'z davlatini, farzandlarini kelajagi va ularning yaxshiligini o'ylagan otaga nisbatan qilingan suiqasddan ko'zlarimga yosh keldi. Negaki, bunday isnonning o'z farzandi tomonidan o'ldirilishi ham juda ajinarli holat. O'z otasining qotili bo'lishining ham asosi sababi taj-u taxtga bo'lgan xirs hamda molu mulkka bo'lgan sevgi bo'ladi. Bu kitobni o'qib ozim uchun ancha xulosa oldim va bizning bobomiz Mirzo Ulug'bek kim bo'lganini, biz aynan unga qarab intilishimiz ilhomlanishimiz kerakligini tuhunib yetdim. O'zimga kerakli xulosalarni chiqarib oldim.

Xulosa:

Ushbu asarni o'qigan holda hamda asarning bosh qahramoni bo'lmish Mirzo Ulug'bek haqida xulosa chiqarkanmiz uning vatanga bo'lgan muhabbat toju taxtga bo'lgan muhabbatdan ming marotaba ustun hisoblanadi. Sababiki, u bobosi Amir Temurdan qolgan yagona yodgorlik bo'lmish davlatni kelajak avlodga yetkazish hamda uni yanada rivojlantirib unda olimlarni, ziyolilarni hamda zukko va dono yoshlarni ko'paytirish edi. Afsuski bunday holatni amalga oshiriladigan oldin o'zining o'g'li tomonidan o'ldirildi. Bu albatta yurt hayotiga ham qolaversa xalq hayotida ham o'zining ta'sir kuchini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirvaliyev S., Shokirova R. O'zbek adiblari. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2016 yil.
2. Maqsud Shayxzoda. Mirzo Ulug'bek. "O'qituvchi". Toshkent. 1994 yil, 134-bet.
3. Qozoqboy Yo'ldoshov. Yoniq so'z. "Yangi asr avlodi". Toshkent. 2006 yil, 217-bet.
4. Ozod Sharofiddinov. Ijodni anglash baxti. "Sharq" nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T.: 2004, 544-bet
5. Maksud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983 y.
6. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi, T., 1999 y. – 25 b.
7. Shayxzoda Maksud. Shoir qalbi dunyoni tinglar (Tanlangan asarlar) // Toshkent, "Nihol", 2008. – 28 b.
8. Abdusalilova M. Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodining o'zbek milliy adabiyotidagi tutgan o'rni T., 2022 y. – 1198 b. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences ISSN 2181-1784.
9. Abdusalilova M. Maqsud Shayxzoda – Ikki xalq dilbandi, T., 2022 y. – 284 b. Academic Research in Educational Sciences Volume 3. Multidisciplinary Scientific Journal October, 2022.